

Asliyat tarjimasida tarjimon tafakkurining órni

Tursunboyeva Farangis Jasurovna

Buxoro Davlat Pedagogika instituti 3-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada asliyat tarjimasida tarjimonlarning tafakkur maydoni va dunyoqarashi qanchalik muhim ekanligi tahlil qilinadi. Shuningdek, tadqiqotning maqsadi tarjima qilish qanchalik murakkab jarayon ekanligi va bu jarayonda tarjimon nafaqat bir asarni tarjima qilishi balki uni bir madaniyatdan boshqa bir madaniyatga qaysidir manoda moslashtirishini aniqlashdan iborat.

Kalit soʻzlar: Tarjimonlik, tafakkur maydoni, adabiyot durdonalari, dunyoqarash, nozik did.

Аннотация: В данной статье анализируется значимость ментального поля и мировоззрения переводчика в процессе перевода оригинала. Цель исследования заключается в выявлении сложности процесса перевода, в котором переводчик не только переводит произведение, но и в определенной степени адаптирует его из одной культуры в другую.

Abstract: This article analyzes the importance of the translator's cognitive field and worldview in the process of original translation. The purpose of the study is to identify the complexity of the translation process, highlighting that a translator does not merely translate a work but, in a sense, adapts it from one culture to another.

Bugungi jadal rivojlanib boryotgan zamonda har bir sohada tarjimonlarning sezilarli oʻrni bor. Tarjimonlik sohasi qadim davrlardan mavjud boʻlib bugungi kunda ham oʻz faoliyatini davom ettirmoqda. Tarjimon soʻzini Oʻzbek tiliga oʻgirilganda, bu soʻz arab tilidan “tarjima qiluvchi shaxs” degan maʼnoni bildiradi, ayrim manbalarda esa tilmoich bu

soʻzning sinonimi sifatida foydalaniladi. Yani biron jumla yoki gap muayyan tilda aytiladi va tarjimon uni boshqa bir tilga oʻzining tafakkuridan kelib chiqqan holda tarjima qiladi. Eng qiziq jihati shundaki, bitta jumlaning har bir tarjimon turlicha tarjima qilishi mumkin bu esa tarjimonning bilim va salohiyatining yuksakligi, tafakkur maydonining qay darajada keng ekanligini belgilab beradi.

Tarjimonlik uzoq davrlardan buyon turli millat vakillarining hamdoʻstligi, fikr almashinuvi hamda rivojlanishiga oʻzining salmoqli hissasini qoʻshib kelmoqda. Tarjimonlik qadimgi dunyo tarixidan buyon mavjud boʻlib yozma manbalar mavjud boʻlmasa ham ogʻzaki nutqda keng qoʻllanilgan. Bugungi kunda ham tarjimalar ogʻzaki va yozma nutqda tarjimonlar tomonidan mohirona qilinib kelinmoqda. Oʻzbek adabiyoti badiiy tarjimachiligida oʻzining beqiyos tarjimalari bilan yorqin iz qoldirgan ijod ahlini aytadigan boʻlsak bunga Xamza Hakimzoda Niyoziy, Abdulla Qodiriy, Oybek, Choʻlpon, Hamid Olimjon, Gʻafur Gʻulom, Abdulla Qahhor, Mirtemir, Zulfiya va boshqa koʻplab qalamida sehri bor ijodkorlarimiz kiradi. Niyoziy arab, fors, rus va turk tillarini bilgan va turli asarlarni tarjima qilgan boʻlsa Abdulla Qodiriy arab, fors, rus tillarini bilgan va Abdulla Shunosiyning „Fizika“ (1928), Gogolning „Uylanish“ (1935), Anton Chexovning „Olchazor“ (1936) kabi mashhur asarlarni Oʻzbek tiliga tarjima qilgan.

Xuddi Oʻzbek tarjimonlari kabi chet ellik tarjimonlar ham tarjimonlik sohasida oʻz faoliyatlarini olib borishgan va koʻplab asarlarni mahorat bilan turli tillarga tarjima qilishgan. Gregory Rabassa, Richard Pevear, Edith Grossman, Seamus Heaney, Michael Henry Heim singari zabardast ijodkorlar oʻzining betakror mahorat, nozik didi va sheʼriy nafasini qoʻshib xorijiy adabiyot durdonalarini mahorat bilan turli tillarga tarjima qilishgan. Gregory Rabassa Ispan va Portugal tillaridagi adabiyotlarni ingliz tiliga oʻgʻrUVchi tarjimon boʻlib „Hopscotch“ (1966), „A man for manual“ (1978), „One hundred years of Solitude“ (1970) kabi koʻplab asarlarning tarjimoni hisoblanadi. Richard Pevear asosan Fransuz, Italian va Grek tillaridagi asarlarni Ingliz tiliga tarjima qilishi bilan shugʻullangan shuningdek u Tolstoyning „Anna Karenina“ (2000), Dostoevskiyning „the brothers Karamazov“ (1990) kabi koʻplab mashhur asarlarni tarjima qilgan.

Bir asarni bir tildan ikkinchisiga tarjima qilish — bu shunchaki soʻzlarning maʼnosini ketma-ket yozish emas, balki muallif qalbiga kirib borish, uning qanday fikr, tuygʻularni ifoda etmoqchi boʻlganini his qilish va asarni qaytadan kashf qilish demakdir. Agar tarjima faqat tashqi shaklga asoslangan boʻlsa, muallifning asl maqsadi yoʻqolib ketadi. Bir asarni tarjima qilishi uchun tarjimonga faqatgina til bilimi yetarli boʻlmaydi, unda keng dunyoqarash va tafakkur maydoni yaxshi rivojlangan boʻlishi darkor.

Chinakam tarjimon esa matnning zamirida yotgan gʻoyani, ruhiyatni va estetik yukni ham oʻquvchiga yetkazishga harakat qiladi. Shu sababli, tarjima jarayonida nafaqat til bilimi, balki nozik did, chuqur tafakkur va badiiy sezgi ham zarur. Tarjimon, eng avvalo, asarni tarjima qilishdan oldin uning mazmun-mohiyatini, gʻoyaviy asosini, yozuvchining qalbidagi niyatini toʻla tushunib olishi lozim. Shundagina tarjimon yozuvchining maqsadi va niyatini oʻquvchiga toʻlaqonli yetkazib bera oladi. Aks holda, u yaratgan matn asl asarning shunchaki tarjimasida aylanib qoladi. Bunda esa oʻquvchi zerikib qolishi yoxud yozuvchining asl maqsadini anglashda qiynalishi mumkin.

Adabiyotda shunday asarlar borki, ularda uchraydigan baʼzi iboralar yoki jumlar bizning milliyligimiz, dunyoqarashimiz, madaniyatimiz va tafakkur tarzimiz bilan uygʻunlashmaydi. Shunday hollarda tarjimonlar tanlov qilishga majbur boʻlishadi: yani bizning tilimizdagi muqobilini topish yoki uni shunchaki tashlab ketish. U iboralar bizning madaniyatimizga mos kelmasligi yoki tarjima qilganda maʼno gʻaliz boʻlib qoladi shunda tarjimonlar oʻsha jumlani tashlab ketish yoki Oʻzbek tilidagi biror bir ibora bilan almashtirishga majbur boʻladi. Shu sababli, koʻplab tarjimonlar bu kabi iboralarni toʻgʻridan-toʻgʻri tarjima qilishdan koʻra, ular bilan maʼnodosh, oʻzbek tilining ruhiga mos keladigan muqobil jummalarni izlashga urinadilar. Ammo bu jarayon oson emas — aynan toʻgʻri muqobil topish katta ijodiy mehnatni, yuqori didni va til sezgirligini talab qiladi. Albatta bu tanlov tarjimonning didi va mahorati qanchalik yuksak ekanligini ham belgilab beradi.

Umumiy qilib aytadigan boʻlsak, har bir tarjimonning oʻzining tarjima qilish mahorati va uslubi boʻladi. Shu orqali tarjimon maʼlum asarni qayta yaratadi va unga

joziba baxsh qiladi. Tarjimonlikda ham faqatgina bitta tilni bilish emas balki o'sha tilni tubdan o'ranishi va juda ko'p bilimga ega bo'lishi lozim sanaladi. Bu esa tarjimondan ko'p ter to'kishini va uzoq mashqatli yo'lni bosib o'tishini talab qiladi. Bu og'ir mashaqqatli yo'ldan esa faqat eng sabr toqatli va bardoshlilar o'ta olishadi. Bu ham tarjimonlarning qaysidir ma'noda chidamlilik va bardoshliligini tekshirsa bejiz emas. Ular nafaqat bir asarni tarjima qilibgina qolmay o'sha asarni xalqqa o'zining tilida talqin qilib beradi. Agar tarjimon asraning g'oya mazmunini maromiga yetkazib tarjima qilolmasa o'quvchiga bu asar va uning yozuvchisi maqul kelmasligi mumkin aslida esa bu tarjimonning kamchiligi sanaladi. Shuning uchun ham tarjimonlar o'ta e'tiborli va nozik did sohiblari bo'lishi lozim. Aslini olib qaraganda tarjimonlik eng mashaqqatli kasblardan biri sanalgan, hozirda ham shunday bo'lib kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

Musayev Qudrat. Tarjima nazariya asoslari: Darslik. T: *O'zbekiston Respublikasi FA "FAN" nashriyoti*, 2005.-352b

G'aybulla Salomov. Tarjima nazariyasiga kirish: Qo'llanma. *O'qituvchi nashriyoti, Toshkent-1978*

I. G'afurov, O. Mo'minov, N. Qambarov. Tarjima nazariyasi: Oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma. Toshkent: *tafakkur-Bo'stoni*, 2012. 216b

G'. Salomov, N. Komilov, Z. Salimova, K. Jo'rayev, N. Otajonov. Tarjimon mahorati: *O'zbekiston SSR "FAN" nashriyoti. Toshkent-1979*

Diana Sultanova, Shaxnoza Yo'ldosheva. Bevosita tarjima saboqlari: O'quv uslubiy qo'llanma. *SamDCHTI nashri, Samarqand-2005*

Jumaniyoz Sharipov. Badiiy tarjimalar va moxir tarjimonlar: *O'zbekiston SSR "FAN" nashriyoti. Toshkent-1972*

Tarjima jarayoni va xorijiy tillarni o'qitishning dolzarb muammolari. Ilmiy nazariy konferensiya materiallari. Samarqand: *SamDCHTI nashri*, 2006

Safoyeva.S (2024) Pragmatik markerlar, Lingvistik yondoshuv va bog'liqlik nazariyasi. Innovative development in edecational activities, 33

Tarjima masalalari. Ilmiy maqolalar to'plami. *ToshDSHI: 2012, 26 aprel*

Ergash Ochilov. Tarjima nazariyasi va amaliyoti: O'quv qo'llanma. *TDSHI: Toshkent-2012*